

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

SH. SHaripov.

2018 yil "18" 08

"KELISHILDI"

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

2018 yil "25" 08

Ro'yhatga olindi: BD-5110100 2.01

2018 yil "18" 08

UMUMIY PSIXOLOGIYA  
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5110100 – matematika o'qitish metodikasi
	5110200 – fizika va astronomiya o'qitish metodikasi
	5110300 – kimyo o'qitish metodikasi
	5110400 – biologiya o'qitish metodikasi
	5111500 – geografiya o'qitish metodikasi
	5110600 – tarix o'qitish metodikasi
	5110700 – informatika o'qitish metodikasi
	5110800 – tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
	5111100 – musiqa ta'limi
	5111200 – o'zbek tili va adabiyoti
	5111300 – ona tili va adabiyoti ( tillar bo'yicha)
	5111400 – xorijiy tillar va adabiyoti (tillar bo'yicha)
	5111500 – chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik
	5111600 – milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
	5111700 – boshlang'inch ta'lim va sport- tarbiyaviy ish
	5111900 – defektologiya
	5112000 – jismoniy madaniyat
	5112100 – mehnat ta'limi
	5120100 – filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek filologiyasi)
	5120900 – o'zbek-ingliz tarjima nazariyasi va amaliyoti
	5112600- iqtisodiy bilim asoslarini o'qitish

Fan dasturi Oliy va o'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil "18" "08" dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil "25" "08" dagi 744-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

#### **Tuzuvchilar:**

Safayev N.S. - Nizomiy nomidagi TDPU "Pedagogika va umumiy psixologiya" kafedrasida professori, psixologiya fanlari doktori  
Mirashirova N.A. - "Pedagogika va umumiy psixologiya" kafedrasida dotsenti  
Odilova N.G. - "Pedagogika va umumiy psixologiya" kafedrasida dotsent v/b.

#### **Taqrizchilar:**

Rasulov A.I. - O'zMU "Psixologiya" kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

Tursunov L.S. - O'zMU "Psixologiya" kafedrasida dotsent v/b, psixologiya fanlari nomzodi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti o'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018-yil 25 08 dagi 744-sonli bayonnomasi)

## I. O'quv fanining dolzarbligi oily kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu dastur umumiy psixologiya fanining mohiyati, psixikani rivojlanishi, shaxs psixologiyasi, bilish jarayonlari, shaxsning hissiy-irodaviy sohasi, individual-psixologik xususiyatlar, psixologik holatlar hamda shaxsning shakllanishi jarayonida yuzaga keladigan psixologik, fiziologik va jismoniy o'zgarishlar, shuningdek shaxsga xos sifat, xususiyat, holatlar ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilishning yoshga bog'liq jihatlarining psixologik mexanizmlarini o'z ichiga qamrab oladi.

## II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan **maqsad** - talabalarda umumiy psixologiya fani, psixika, shaxs, faoliyat, muloqot, bilish jarayonlari, irodaviy sifatlar, hissiy holatlar, individual-xususiyatlarga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir, hamda bo'lajak pedagog mutaxassislar tamonidan psixik taraqqiyot qonuniyatlari, davrlari, mexanizmlari, omillari va shart-sharoitlari haqidagi zamonaviy ilmiy bilimning o'zgartirilishini tashkil etishdir.

Fanning **vazifasi** - talabalarga umumiy psixologiyaning mohiyati, psixika va ong tushunchalari, psixik jarayonlar, holatlar, xususiyatlar, psixik rivojlanish va uning o'ziga xos xususiyatlari, yosh davrlari tasnifi, psixik taraqqiyotning turli bosqichlari uchun xos psixofiziologik va psixologik xususiyatlar haqidagi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qoyiladigan talablar qo'yiladi **Talaba:**

“Umumiy psixologiya” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- psixologiyaning tabiiy va ijtimoiy fan sifatida talqin qilinishi;
- psixologiyaning sohalari;
- psixologiya fanining taraqqiyoti tarixi;
- psixologiya va ilmiy – texnik taraqqiyot;
- pedagog faoliyatida psixologiyaning yetakchi ahamiyatga ega ekanligi;
- psixika tirik mavjudotning ob'ektiv borliqni aks ettirish shakli ekanligi;
- psixika va ong munosabati;
- sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari;
- psixologiya sohasida ilmiy-tekshirish olib borishning o'ziga xosligi;
- psixologiyani tadqiqot metodlari;
- xulq-atvorning psixofiziologik asoslari;
- nerv tizimi, neyronlar;
- bosh miya va psixika;
- psixologik rivojlanishning genetik asoslari. Muhit psixik faoliyat va taraqqiyot omili sifatida;
- faoliyat va motivlar, faoliyatning asosiy turlari;
- odam psixikasining paydo bo'lishi;
- odam psixikasining ontogenez taraqqiyoti;

- yuksak psixik funksiyalarning tarkib topishi;
- motivatsiya sohalari; psixik holatlar, shaxsning hissiy-irodaviy sohasi;
- irodaviy harakatlar va uni boshqarish;
- irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari;
- iroda borasidagi nazariyalar;
- irodaviy akt va uning tuzilishi;
- irodani individual xususiyatlari;
- irodani tarbiyalash va uning psixologik asosi;
- individ, shaxs, individuallik;
- shaxs faoliyati;
- shaxsni eksperimental tadqiq qilish metodlari;
- shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar;
- shaxs psixologik strukturasi;
- shaxs nazariyalari (G.Ayzenk, Z.Freyd, K.Rodjers);
- muloqot va uning ko'p maqomli xarakteri;
- nutq va uning funksiyalari;
- muloqotning inson filogenetik va ontogenetik rivojlanishidagi ahamiyati;
- muloqotning verbal va noverbal vositalari;
- muloqot texnikasi va usullari;
- diqqat, uning fiziologik mexanizmlari, turlari;
- diqqatning xususiyatlari;
- shaxsda diqqat rivojlanishi;
- sezgi va idrokning fiziologik asoslari;
- sezgilarning turlari;
- sezgi sohasidagi qonuniyatlar;
- sezgi va sezuvchanlikning psixologik asosi;
- idrokning nerv-fiziologik asoslari;
- idrokning xususiyatlari va qonuniyatlari;
- idrokda ob'ekt va fon;
- appersepsiya, idrokning konstantligi;
- idrokda illyuziya va gallyutsinatsiya. Vaqt, harakat va fazoni idrok qilish;
- xotira nazariyasi;
- xotiraning nerv-fiziologik asosi;
- xotira nazariyalari;
- xotira turlari;
- xotira jarayonlari;
- xotirani o'rganish metodlari;
- xayol va uning turlari;
- xayol jarayonlari;
- xayol sifatleri;
- xayolning mazmundorligi va kuchi, fantaziya;
- xayolning rivojlanishi psixologik asosi;
- tafakkur va hissiy bilish, intellekt;
- tafakkur operatsiyalari;

- tafakkur shakllari va turlari;
- tafakkur borasidagi psixologik nazariyalar;
- muammoli vaziyat va uni hal qilish metodlari;
- intellekt nazariyalari;
- intellekt sohasida psixologik differentsiatsiya – irsiyat, jins, madaniyat, muhit.
- intellektni o'lchash metod va metodikalari;
- intellekt sohasidagi buzilishlar;
- qobiliyat va layoqatning sifat va miqdor xarakteristikasi;
- qobiliyatlar tuzilishi, turlari;
- talantning paydo bo'lishi va tuzilishi;
- qobiliyat borasidagi nazariyalar;
- qobiliyatlarning rivojlanishi;
- umumiy psixologiya va yosh psixologiyasi;
- umumiy psixologiya va pedagogik psixologiya;
- fiziologik va psixologik rivojlanish jarayoni;
- yosh va pedagogik psixologiyaning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni maktabgacha yosh davrining o'ziga xos xususiyatlari;
- kichik maktab yoshi bolalar psixologiyasi;
- o'smir va o'spirinlar psixologiyasi, ta'lim, tarbiya va o'qituvchi psixologiyasi haqida **bilimga**;

-talaba psixologiya fanining tarixi, psixika va ong, psixologik metodlar, individ, irsiyat va muhit, shaxs, muloqot, faoliyat, bilish jarayonlari, shaxsning hissiy-irodaviy sohasi, shaxsning individual xususiyatlari yuzasidan tushuncha, tasavvurga ega bo'lish bilan birga, psixik rivojlanishga ta'lim-tarbiya jarayonlarining ta'siri yuzasidan olingan bilimlarni amaliy faoliyatga tadbiiq etish;

- iqtidorli bolalar va ularni tanlash;
- yosh psixologiyasining paydo bo'lishi;
- yosh psixologiyasini o'rganish metodlari;
- ta'limning yosh psixologiyasi taraqqiyotida tutgan o'rni;
- maktabgacha yosh davrining o'ziga xos xususiyatlari;
- kichik maktab yoshi bolalar psixologiyasi;
- o'smir va o'spirinlar psixologiyasi;
- ta'lim va aqliy taraqqiyot;
- pedagogik qobiliyat va uning turlari;
- o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan psixologik talablarni amaliyotga joriy etish bo'yicha **ko'nikmaga**;

-shaxs(o'quvchi)ning psixologik xususiyatlarini o'rganuvchi metod va texnologiyalar;

- bilish jarayonlari va individual xususiyatlarning diagnostikasi va korreksiyasi;
- pedagogik jarayonni boshqarish;
- o'quv eksperimentlar o'tkazish;
- shaxs(o'quvchi) psixikasining o'ziga hos xususiyatlarini kuzatish;
- o'quv jarayonida turli anketa va boshqa usullarni qo'llay olish;
- psixologik ma'rifiy ishlarni tashkil etish;

- o‘quvchilarning psixologiyasiga xos xususiyatlarni o‘rganish bo‘yicha eksperimentlar o‘tkazish;
- bolalarning maktabga tayyorgarligi bo‘yicha xulosa bera olish;
- rivojlanish bosqichlaridagi psixologik xususiyatlar, ulardagi turli jarayonlar bo‘yicha maslahatlar olib borish;
- ta’lim tarbiyadagi turli jarayonlar bo‘yicha maslahatlar olib borish;
- yosh psixologiyasi bo‘yicha olib borilgan kuzatuv va eksperimentlarni rasmiylashtirish **malakalariga ega bo‘lishi lozim**.

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“Umumiy psixologiya” fani asosiy umumkasbiy fan hisoblanadi. Dasturni amalga oshirish uchun o‘quv rejasida rejalashtirilgan gumanitar va ijtimoiy iqtisodiy (falsafa, pedagogika va h.k), matematika va tabiiy-ilmiy (informatika va axborot texnologiyalari, yosh fiziologiyasi va gigiyena va h.k) blokidagi fanlar bilan aloqada o‘rganilib, bu fanlardan etarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlik talab etiladi.

Fanning ta’limdagi o‘rni “Umumiy psixologiya” fani pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida o‘qitiladigan, mutaxassislik fanlarini o‘zlashtirish uchun muhim manba sifatida xizmat qiladigan fandır.

Fanni o‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning “Umumiy psixologiya” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi. Ma’ruza, seminar darslarida mos ravishdagi pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

### **III. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

#### **1-Modul. Psixologiya predmeti**

#### **1-mavzu. Psixologiya fanining predmeti va rivojlanish tarixi**

Umumiy psixologiyaning predmeti, vazifalari. Psixologiya tabiiy va ijtimoiy ilmiy fan sifatida. Psixologiya fanining predmeti haqidagi tasavvurlar taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Psixologiyaning falsafa doirasidagi taraqqiyoti. Psixologiya va ilmiy-texnik taraqqiyot. Psixologiyaning asosiy muammolari. Pedagog faoliyatida psixologiyaning yetakchi ahamiyatga ega ekanligi. Psixologiyasining tuzilishi, psixologiya sohalari psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni. Psixologiya fanining taraqqiyoti tarixi. Psixologik bilimlarning rivojlanish bosqichlari. Psixologiya fanining yirik ilmiy yo‘nalishlari va maktablari ( biologik, evolyusion, genetik, bixeviorizm, kognitiv, ijtimoiy-madaniy). O‘zbekistonda psixologiya fanining rivojlanish tarixi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari, ularda to‘plangan bilimlarning amaliyotda qo‘llanishi.

## **2-mavzu. Psixologiyaning tadqiqot metodlari va tarmoqlari**

Psixologiya sohasida ilmiy-tekshirish olib borishning o'ziga xosligi. Psixologik tadqiqot metodlari: kuzatish, eksperiment, psixofiziologik metodlar, klinik metodlar, differensial metod, suhbat va so'rov, test, korrelyatsiya, modellashtirish, faoliyat natijasini o'rganish. Psixologiyada ilmiy tekshirish olib borishda zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.

## **3-mavzu. Xulq-atvorning psixofiziologik asosi**

Xulq-atvorning psixofiziologik asosi ( Nerv tizimi. Neyronlar. Akson. Dendrit. Miya. Endokrin tizim. Genetika.) Endokrin tizimning inson organizmi va xulq atvoridagi ahamiyati. Psixik xususiyat va holatlarning neyropsixologik asoslari. Egizaklar usuli, gen va atrof-muhit bir-biriga ta'siri. Irsiyat. Bixevioral genetika. Psixik faoliyatning jinsga oid xususiyatlari. Xulq-atvorning psixofiziologik asosi bo'yicha qisqacha xulosa va amaliy tavsiyalar.

## **4-mavzu. Ong taraqqiyoti va ongsizlik**

Filogenez va ontogenez haqida tushuncha. Psixikaning sensor, perseptiv bosqichlari. Instinktlar. Instinkt tushunchasining mazmuni. Instinktlarning klassifikatsiyasi. Hayvonlarning individual va intellektual xatti-harakat shakllari. Ongning paydo bo'lishi va uning taraqqiyoti. Onglilik va ongsizlik. Muhit psixik faoliyat va taraqqiyot omili sifatida. Anglanmagan psixik jarayonlar.

## **2-Modul. Bilish jarayonlari**

### **5-mavzu. Diqqat**

Diqqat haqida tushuncha. Diqqatning nerv-fiziologik asoslari. Diqqat turlari, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriy diqqat, ixtiyoriydan so'nggi diqqat. Diqqatning xususiyatlari, diqqat kuchi va bo'linishi, diqqat ko'lami, diqqat taqsimlanishi, shaxsda diqqat rivojlanishi. Diqqatning psixologik asosi haqida qisqacha xulosa. Amaliy tavsiyalar.

### **6-mavzu. Sezgi**

Sezgilar haqida umumiy tushuncha. Sezgilarning nerv-fiziologik asoslari. Sezgilarning tasnifi, sezgilarning turlari, sezgi sohasidagi qonuniyatlar. Sezgi va sezuvchanlikning psixologik asosi haqida qisqacha xulosa.

## **7-mavzu. Idrok**

Idrok haqida tushuncha. Idrokning nerv-fiziologik asoslari, xususiyatlari va qonuniyatlari. Idrokda ob'ekt va fon, appersepsiya, idrokning konstantligi. Idrokda illyuziya va gallyutsinatsiya. Vaqt, harakat va fazoni idrok qilish. Idrokning psixologik asosi haqida qisqacha xulosa. Amaliy tavsiyalar.

## **8-mavzu. Xotira**

Xotira haqida tushuncha. Xotiraning nerv-fiziologik asosi. Xotira nazariyalari. Xotira turlari, faoliyatga ko'ra xotira turlari, maqsadiga ko'ra xotira turlari, muddatiga ko'ra xotira turlari. Xotira jarayonlari, esda olib qolish, esga tushirish, esda saqlash, unutish. Xotirani o'rganish metodlari. Xotiraning psixologik asosi haqida qisqacha xulosa. Amaliy tavsiyalar.

## **9-mavzu. Xayol**

Xayol haqida tushuncha. Xayol jarayonlari. Xayol turlari, tasavvur xayoli, ijodiy xayol, ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol, orzu, tush ko'rish va shirin xayol. Xayol sifatlari, xayolning kengligi va torligi, xayolning chuqurligi va realligi, xayolning mazmundorligi va kuchi, fantaziya. Xayolning rivojlanishi. Xayol bo'yicha qisqacha xulosa. Amaliy tavsiyalar.

## **10-mavzu. Tafakkur**

Tafakkur haqida tushuncha. Tafakkur va hissiy bilish. Tafakkur operatsiyalari, tafakkur shakllari, turlari. Tafakkur borasidagi psixologik nazariyalar. Muammoli vaziyat va uni hal qilish metodlari. Tafakkurning psixologik asosi haqida qisqacha xulosa. Amaliy tavsiyalar.

## **11-mavzu. Intellekt va kreativlik**

Intellekt va kreativlik haqida tushuncha. Intellekt va kreativlik nazariyalari. Intellekt sohasida psixologik differensiatsiya – irsiyat, jins, madaniyat, muhit. Intellektni o'lchash metod va metodikalari. Intellekt sohasidagi buzilishlar. Intellekt va kreativlikning psixologik asosi haqida qisqacha xulosa. Amaliy tavsiyalar.

## **3-Modul. Faoliyatning psixologik tahlili**

### **12-mavzu. Faoliyat va motivatsiya**

Faoliyat haqida tushuncha. Faoliyatning tuzilishi, turlari. Motiv va motivatsiya. Motivlarning turlari. Motivatsiya nazariyalari (A.Maslou, A.Adler, Z.Freyd). Motivatsion sohani tekshirish metodlari. Motivatsiyaning psixologik asosi haqida qisqacha xulosa. Amaliy tavsiyalar.

### **13-mavzu. Muloqot**

Muloqot va nutq haqida tushuncha, muloqot turlari. Muloqotning inson filogenetik va ontogenetik rivojlanishidagi ahamiyati. Muloqot vazifalari. Muloqotning verbal va noverbal vositalari, muloqot shaxslararo o‘zaro ta’sir etish sifatida, muloqot insonlarning bir-birini tushunishi, muloqot texnikasi va usullari. Muloqotning ijtimoiy-psixologik jihatlar haqida tushuncha. Shaxslararo munosabatlar va ularda muloqotning o‘rni. Muloqot tomonlari, muloqotning kommunikativ tomoni, muloqotning interaktiv tomoni, muloqotning perseptiv tomoni, emotsional va ijtimoiy intellekt, ijtimoiy psixologik trening haqida tasavvur hosil qilish. Muloqotning psixologik asosi haqida qisqacha xulosa. Amaliy tavsiyalar.

#### **4-Modul. Shaxsning hissiy-irodaviy sohasi**

##### **14-mavzu. Hissiyot**

Emotsiya haqida tushuncha. Hissiy holatlarning nerv-fiziologik asoslari. Insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi emotsiyalar. Emotsiya nazariyalari (Djeyms-Lang, Kennon- Bard, S.Shaxter, D. Zinger) Qarama –qarshi emotsiyalar nazariyasi (R. Salomon bo‘yicha). Hissiy holatlarning ifodalanishi, hislarni kechirish shakllari. Yuksak hislar. Emotsiyalar va hissiyot haqida tushuncha. Emotsional holatlarning turlari. Hissiy holatlarning ifodalanishi, hislarni kechirish shakllari. Hissiy ton, affekt, stress. Yuksak hislar: praksik hislar, axloqiy hislar, estetik hislar, intellektual hislar. Ijtimoiy xulq-atvor xususiyatlari.

##### **15-mavzu. Iroda**

Iroda haqida tushuncha. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari. Iroda borasidagi nazariyalar. Irodaviy akt va uning tuzilishi. Irodaviy harakatlar va uni boshqarish. Shaxsning irodaviy sifatleri. Irodaning individual xususiyatlari. Irodani tarbiyalash. psixologik asosi haqida qisqacha xulosa. Amaliy tavsiyalar.

#### **5-Modul. Shaxs va uning xususiyatlari**

##### **16-mavzu. Shaxs**

Shaxs haqida tushuncha. Shaxsning rivojlanishi. Shaxsning ximoyalanish mexanizmlari. ta’sir etuvchi omillar. Shaxs psixologik strukturasi. Shaxs nazariyalari (G.Ayzenk, Z.Freyd, K.Rodgers, A Maslou). Xarakter haqida tushuncha. Shaxsning o‘zini o‘zi baholashi. Shaxsning o‘zini o‘zi nazorat qilishi va boshqarishi. Shaxsni o‘rganish metodlari (kuzatish, proyektiv texnikalar, so‘rovnomalalar va amaliy testlar

## **17-mavzu. Temperament va xarakter**

Temperament haqida tushuncha, temperament tiplari, temperamentning klassik nazariyalari, temperament xususiyatlari, temperamentni tarbiyalash haqida ilmiy bilimlarni shakllantirish. Individuallik xususiyatlari differensial psixologiyaning predmeti sifatida. Inson shaxsi va individuallik xususiyatlari. Individuallik xususiyatlari klassifikatsiyasi va ularning shaxs xulq-atvori regulatsiyasidagi o'rnini. Temperament. ONF tiplari xususida I.P.Pavlov nazariyasi, temperament haqida hozirgi zamon nazariyalari. Temperamentning evolyutsion jarayonga moslashish imkoniyatlari.

Xarakter haqida tushuncha, xarakter tuzilishi va xususiyatlari, xarakter tipologiyasi, xarakterning shakllanishi, xarakterning ifodali belgilari haqida tushuncha va ilmiy tasavvurlar hosil qilish. Xarakter shakllanishi. Xarakter aksentuatsiyasi. Jinsiy dimorfizm va individning psixologik tavsifi.

## **18-mavzu. Qobiliyat**

Qobiliyatlar haqida tushuncha, qobiliyatlarning sifat va miqdor tavsifi, qobiliyatlarning tuzilishi, qobiliyat turlari, qobiliyat va irsiyat, qobiliyatlarning rivojlanishi haqida ilmiy bilimlarni shakllantirish. Layohat va qobiliyat. Qobiliyatlar tuzilishi, turlari. Talantning paydo bo'lishi va tuzilishi. Shaxs rivojlanishining individuallik xususiyatlari va ularning roli haqida qisqacha xulosa. Amaliy tavsiyalar.

## **6-Modul. Yosh va pedagogik psixologiya predmeti**

### **19-mavzu. Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot sohasi va muammolari**

Yosh va pedagogik psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Yosh va pedagogik psixologiya faniga oid ilmiy bilimlarning vujudga kelish tarixi, fanning asosiy sohalari, yosh va pedagogik psixologiya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Yosh va pedagogik psixologiyaning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rnini, yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari haqida tushuncha va ilmiy tasavvurlar hosil qilish. Psixik rivojlanish haqida tushuncha, uning o'ziga xos xususiyatlari. Rivojlanishni davrlashtirish muammosi psixik rivojlanish va ta'lim o'rtasidagi o'zaro munosabat. Turli yosh davrlarda yetakchi faoliyat turlari.

### **20-mavzu. Ontogenezning ilk bosqichlarida insonning psixik rivojlanishiga xos xususiyatlar**

Perinatal davrining o'ziga xos xususiyatlari, chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishga xos xususiyatlar haqida umumiy tushuncha, tug'ilish davri inqirozi, go'daklik davrining o'ziga xos psixologik xususiyatlari, ilk bolalik

davrida psixik rivojlanish xususiyatlari, ilk bolalik davrida o'z-o'zini anglashning rivojlanishi va 3 yoshlilar inqirozi haqidagi nazariy bilimlarni tarkib toptirish

### **21-mavzu. Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish xususiyatlari**

Maktabgacha yosh davrida psixofiziologik taraqqiyotning umumiy tavsifi, o'yin - maktabgacha yoshdagi bolaning etakchi faoliyati sifatida, maktabgacha yosh davrida bilish jarayonlari va nutqning rivojlanishiga xos xususiyatlar, maktabgacha yosh davrida emotsional-irodaviy sifatlarning rivojlanish xususiyatlari. Yosh davrida motivatsion sohadagi o'zgarishlar, 7 yoshlilar inqirozi, uning sabablari va alomatlari, maktabga psixologik tayyorlik muammosi haqida tushuncha va ilmiy tasavvurlar hosil qilish.

### **22-mavzu. Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlar**

Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanishning umumiy tavsifi, kichik maktab yoshidagi bolaning maktabga moslashishi muammosi, kichik maktab yoshi davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari (o'quv faoliyati, shaxslararo munosabatlarning motivatsion asoslari), kichik maktab yoshi davrida bolaning o'zi haqidagi tasavvurlari va xulq-atvori, kichik maktab yoshida bola shaxsining rivojlanish xususiyatlari haqida ilmiy bilimlarni shakllantirish.

### **23-mavzu. O'smirlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari**

O'smirlik davridagi psixik rivojlanishning umumiy tavsifi, o'smirlik davri inqirozi va uning psixologik, psixofiziologik sabablari, bu davrda intellektual va emotsional rivojlanish xususiyatlari, o'smirlik davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari (tengdoshlar bilan muloqot qilish motivatsiyasi, o'quv faoliyati motivatsiyasi, jinoiy xulq-atvor motivlari), o'smirlik davrida shaxsning rivojlanish xususiyatlari, o'smirlik davrida o'z-o'ziga baho berish tizimining rivojlanishi muammosi borasidagi tasavvurlarni hosil qilish.

### **24-mavzu. Ilk o'spirinlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari**

Ilk o'spirinlik davriga umumiy tavsif, ilk o'spirinlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish xususiyatlari, ilk o'spirinlik davrida do'stlashish muammosining psixologik xususiyatlari, ilk o'spirinlik davrida muhabbat, ilk o'spirinlik davrida o'zini-o'zi anglashning rivojlanishi, ilk o'spirinlik davrida o'quv-kasbiy faoliyatning etakchi faoliyatga aylanishi va kasb tanlash muammosi, ilk o'spirinlikda kasbga yo'naltirishning psixologik muammolari haqida ilmiy bilimlarni shakllantirish.

## **25-mavzu. Oila psixologiyasi**

Oila kichik guruh sifatida. Oiladagi shaxslararo munosabatlarning tizimiga xos umumiy xususiyatlar. Yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlik muammosi. Nikoh va oila haqidagi tasavvurlar. Oilaviy tarbiya uslublari. Oilaviy shaxslararo munosabatlarning mummolari, oilaviy nizolar.

## **26-mavzu. Yoshlik, yetuklik va keksalik davrining psixologik xususiyatlari**

Yoshlik davri va uning o'ziga xos xususiyatlari, o'z-o'zini anglash, kasbiy anglanganlik. Yetuklik davrining birinchi bosqichidagi shaxsning psixologik xususiyatlari, yetuklik davrining ikkinchi bosqichidagi shaxsning psixologik xususiyatlari. Yetuklik davrining ijtimoiy-psixologik jihatlari.

Gerontopsixologiya - keksalik psixologiyasi haqida umumiy tushuncha. Psixolog olimlarning keksayish davri haqidagi falsafiy fikrlari. Keksalik davrining o'ziga xos xususiyatlari. Biologik keksayish davridagi shaxs psixologiyasi. Keksalik davridagi shaxsning psixologik hususiyatlari. Uzoq umr ko'ruvchilarning psixologik hususiyatlari.

## **7-Modul. Pedagogik psixologiya**

### **27-mavzu. Ta'lim va tarbiyaning psixologik asoslari**

Ta'limning yosh va pedagogik psixologiya fanida tutgan o'rni, ta'lim va aqliy taraqqiyot, o'qish faoliyati va uning turlari, ta'lim va bilimlarni o'zlashtirishni boshqarish muammolari hamda imkoniyatlari, aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich tarkib toptirishning mohiyati, muammoli ta'limning moyiyati, pedagogik bah ova uning turlari, ta'lim texnologiyalarining psixologik xususiyatlari haqida ilmiy bilimlarni shakllantirish.

Tarbiya jarayonining psixologik mohiyati, tarbiya metodlari va turlari, bolalar jamoasi va uning tarbiyaviy imkoniyatlari, tarbiyasi "qiyin" va o'zlashtirmovchi o'quvchilar bilan ishlash metodlari, ilmiy dunyoqarash va barqaror e'tiqodni shakllantirish metodlari, ideal, jinsiy tarbiyalash, mehnatning tarbiyaviy ta'siri o'z-o'zini tarbiyalashning metod va shakllari, tarbiyaning psixologik mexanizmlari, milliy ong va milliy g'ururni tarbiyalashning psixologik asoslari muammosi yuzasidan tasavvurlarni shakllantirish.

### **28-mavzu. O'qituvchi psixologiyasi**

Pedagogik faoliyatning psixologik xususiyatlari, pedagogning o'z-o'ziga talab qo'yishi muammosi, o'qituvchining kasbiy moslashishi muammosi, jamiyatda o'qituvchining tutgan o'rni va uning vazifalari, o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar, o'qituvchining kasbiga xos xislatlari, o'qituvchi o'quvchilarning hayoti va faoliyati tashkilotchisi ekanligi, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, pedagogik muloqot va uning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik

qobiliyatlarning turlari, pedagog o`z ilmiy, o`quv-uslubiy salohiyatini oshirishining psixologik muammolari haqida tushuncha va ilmiy tasavvurlar hosil qilish.

Pedagogik qobiliyatlar haqida tushuncha, pedagogik qobiliyatlarning turlari: didaktik qobiliyatlar, akademik, perseptiv, kommunikativ, nutq qobiliyati, tashkilotchilik, avtoritar, pedagogik hayol, diqqatni taqsimlay olish qobiliyati, pedagog o`z ilmiy, o`quv-uslubiy salohiyatini oshirishining psixologik muammolari haqida fikr almashish.

#### **IV. Seminar mashg`ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg`ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari mazmuni:

##### **2-semestr**

1. Psixologiya fanining predmeti va rivojlanish tarixi
2. Psixologiyaning tadqiqot metodlari va tarmoqlari
3. Xulq-atvorning psixofiziologik asosi
4. Ong taraqqiyoti va ongsizlik
5. Diqqat
6. Sezgi
7. Idrok
8. Xotira
9. Xayol
10. Tafakkur
11. Intellekt va kreativlik
12. Faoliyat va motivatsiya
13. Muloqot
14. Hissiyot
15. Iroda
16. Shaxs
17. Temperament va xarakter
18. Qobiliyat

##### **5-semestr**

1. Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot sohasi va muammolari
2. Ontogenezning ilk bosqichlarida insonning psixik rivojlanishiga xos xususiyatlar
3. Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish xususiyatlari
4. Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlar
5. O`smirlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari
6. Ilk o`spirinlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari
7. Yoshlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash muammosi
8. Yoshlik, yetuklik va keksalik davrining psixologik xususiyatlari
9. Ta`lim va tarbiyaning psixologik asoslari

## 10. O'qituvchi psixologiyasi

### V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishga tavsiya etiladi.

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

Talabalarning mustaqil ta'limi har bir ma'ruza mavzusi asosida tashkil etiladi. Fanni o'rganish jarayonida mustaqil ta'limning bir necha turlaridan foydalaniladi:

- 1) adabiyotlar bilan ishlash;
  - 2) ijodiy ish;
  - 3) ba'zi mavzular bo'yicha referatlar tayyorlash;
- Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

### 2-semestr

- 1 Psixologiya fanining predmeti
- 2 Psixologiya fanining maqsad va vazifalari
- 3 Ong haqida tushuncha va uning xossalari
- 4 Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlari
- 5 Psixikaning filogenetik taraqqiyoti
- 6 Faoliyatning o'zlashtirilishi va malakalarni egallash
- 7 Xorij psixologiyasida motiv va motivatsiya muammosi
- 8 Muloqot haqida tushuncha
- 9 Pedagogik faoliyatda muloqot
- 10 Individ, shaxs, individuallik tushunchalari
- 11 Shaxsning malaka va odatlari
- 12 Chet el psixologiyasida shaxs nazariyalari
- 13 Diqqat haqida tushuncha va uning nerv-fiziologik asoslari
- 14 Diqqat turlari va uning xususiyatlari
- 15 Sezgilar haqida umumiy tushuncha va uning nerv-fiziologik asoslari
- 16 Sezgi turlari va uning qonuniyatlari
- 17 Idrok haqida tushuncha va uning xususiyatlari
- 18 Xotira haqida tushuncha va uning nerv-fiziologik asosi
- 19 Xotira turlari va uning jarayonlari
- 20 Xayol haqida tushuncha
- 21 Xayol jarayonlari va xayol turlari
- 22 Tafakkur borasidagi psixologik nazariyalar

- 23 Tafakkur operatsiyalari
- 24 Intellekt va kreativlik nazariyalari
- 25 Temperament va uning nazariyalari
- 26 Shaxsni o'rganish metodlari
- 27 Emotsional holatlar
- 28 Xarakter haqida tushuncha
- 29 Qobiliyat va uning rivojlanishi
- 30 Iroda borasidagi nazariyalar

### **5-semestr**

- 1 Psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.
- 2 Perinatal va chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishga xos xususiyatlari
- 3 Tug'ilish davri inqirozi
- 4 «Tirilish kompleksi»
- 5 Go'daklik davrida psixik rivojlanishda kattalar bilan emotsional muloqotning ahamiyati (emotsional deprivatsiyaning salbiy oqibatlarini).
- 6 Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari
- 7 Ilk bolalik davrida o'z-o'zini anglashning rivojlanishi va 3 yosh inqirozi
- 8 Maktabgacha yosh davrida psixofiziologik taraqqiyotning umumiy tavsifi
- 9 O'yin maktabgacha yoshdagi bolaning etakchi faoliyati sifatida (o'yin faoliyatining mohiyati, turlari, bilish jarayonlari va shaxs taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari, o'yinchoqning bola psixik rivojlanishiga ta'siri muammosi)
- 10 Maktabgacha yosh davrida bilish jarayonlari va nutqning rivojlanishiga xos xususiyatlar
- 11 7 yosh inqirozi, uning sabablari va alomatlarini.
- 12 Maktabga psixologik tayyorlik muammosi yuzasidan nazariy hamda amaliy bilimlarni shakllantirish
- 13 Kichik maktab yoshidagi bolaning maktabga moslashishi muammosi
- 14 Kichik maktab yoshida bola shaxsining rivojlanish xususiyatlari
- 15 O'smirlik davridagi psixik rivojlanishning umumiy tavsifi
- 16 O'smirlik davri inqirozi va uning psixologik, psixofiziologik sabablari
- 17 O'smirlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish xususiyatlari
- 18 Ilk o'spirinlik davrida o'quv-kasbiy faoliyatning etakchi faoliyatga aylanishi va kasb tanlash muammosi
- 19 Ilk o'spirinlikda kasbga yo'naltirishning psixologik muammolari
- 20 Yoshlik davrining psixologik xususiyatlari
- 21 Ilk yetuklik davrining psixologik xususiyatlari
- 22 O'rta yetuklik davrining o'ziga xos xususiyatlari
- 23 Gerontopsixologiya
- 24 Oilaviy tarbiya uslublari.
- 25 Ta'lim jarayonida o'quv motivatsiyasi va uni boshqarish muammosi
- 26 «Tarbiyasi qiyin» o'quvchilar bilan ishlashning psixologik asoslari
- 27 Pedagog shaxsi va unga qo'yiladigan talablar
- 28 Pedagogik jamoaning psixologik xususiyatlari

**Izoh:** Mustaqil ish mavzulari fan bo'limlari bo'yicha ishchi dasturi mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

## **VI. Asosiy va q'oshimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari**

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Ivanov I., Zufarova M. "Umumiy psixologiya". O'z.FMJ., 2008.
2. Davletshin M.G., Mavlonov M.M, To'ychieva S.M. "Yosh va pedagogik psixologiya" T. TDPU, 2009 .
3. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. "Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti":– T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
4. Xaydarov F.I., Xalilova N. "Umumiy psixologiya". T.: "Fan va texnologiyalar" markazining bosmaxonasi : 2009.
5. Югай А.Х., Мираширова . Н.А. «Общая психология» Т. ТГПУ, 2014.
6. Ғозиев.Э.Ғ. Психология (Ёш даврлари психологияси) Т:Ўқитувчи. 1994 у.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

7. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти нутқи. // Халқ сўзи газетаси, 2017.16 январ, №11

8. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамыз. "Ўзбекистон", 2017.

9. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ49-47 сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил, 7 феврал.

10. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлаш тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. "Ўзбекистон", 2017.

11. Климов Е.А. «Общая психология». – Спб., Питер, 2001

12. David G.Myers. "Psychology" Michigan USA: Worth Publishers.: 2011.

13. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. T., 2006

14. Немов Р.С. Психология. М.: Владос, 2003. 1-2-т.

15. Фридман Л.М. Психология воспитания. Книга для тех, кто

любит детей. - М.: ТТС «Сфера»,1999.

16. Радугина А.А. Педагогика и психология. - М., 2007.

17. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. - СПб: Питер, 2007.

18..G'oziyev E.G'. "Ontogenez psixologiyasi".-Т.: Noshir. 2010

### **Internet saytlari**

19. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

20. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

21. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)

22. <http://books.google.co.uz/books/S.K.Mangal>

23. [www.childpsy.ru](http://www.childpsy.ru)

24. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

25. [www.flogiston.ru](http://www.flogiston.ru)

26. [www.psychology.uz](http://www.psychology.uz)

27. [www.psychology.net.ru](http://www.psychology.net.ru)

28. [www.psycatalog.ru](http://www.psycatalog.ru)





